

Yakdil g'oyalar va bir-biriga mushtoq qalblar

O'zbek va qardosh Ozarbayjon xalqi orasidagi do'stlik, shubhasizki, ko'p asrlik tarixga ega. O'tgan asrning boshlarida jadid taraqqiyparvar bobolarimiz bu do'stlikni yanada yuqori darajaga olib chiqqan edilar. Bu nafaqat matbuot, maorif, madaniyat va san'at, xatto siyosiy sohada ham hamfikrlik, hamkorlikni o'z ichiga oladi. Avval Turkistonga Ozarbayjon gazetalari keldi, teatr truppalari tashrifi muntazam aloqalarga turtki bo'ldi. 1905 – 1917 yillar davomida faoliyat ko'rsatgan jadid maktablarida o'quvchilar dastlab, tatar, Ozarbayjon, turk tillarida chop etilgan darslik

va adabiyotlar asosida o'qitilar edi. Turkiston jadidlari ning ma'rifatparvarlik yo'nalishidan boshlagan ishlari sekin asta siyosiy ko'rinishga evrilib bordi. 1917-yilning mart oyida ilk siyosiy uyushma "Sho'roi islom" jamiyati o'zining partiyachilik tajribalarini yuksaltirish maqsadida Ozarbayjonning Musovvat partiyasi bilan hamkorlikka kirishadi. Natijada Turkistonga ulamo Abulqosim Aminzoda, pedagog va taraqqiyparvar Muhammad Amin Afandizoda, jurnalist Piri Mursalzodalar taklif etildi. Ular Turkistonning qator shaharlarida bo'lib, mahalliy taraqqiyparvarlar, ulamolar, mudarrislar va davlatmand in-

Yangi kuchlar. Bokudagi O'zbekiston talabalari



sonlar bilan uchrashuvlar o'tkazadi. 1917-yilning yozida Turkistondagi ilk siyosiy partiya "Turk adam markaziyat" dunyoga keladi hamda uning Maromnomasi e'lon qilindi. 1917-yil iyun oyida Muhammad Amin Afandizoda va Abdulla Avloniylar muharrirligida "Turon" gazetasi chiqa boshladi. 1917-yil avgust oyida Munavvar qori Abdurashidxonov tashabbusi bilan Toshkent shahrida

muxtoriyat olish masalasida Miyon Quadrat hazrat, Mirzohid Miroqilov, Ashurali Zohiriy, Mahmudxon Ahmadxonovlar rahbarligida u bilan bir necha yig'inlar o'tkazganlar. Turkiston Muxtoriyatini o'lkadagi yagona hokimiyat sifatida tan olinishi maqsadida chaqirilgan Musulmonlarning ishchi, askar va dehqon deputatlari I Qurultoyining ochilishida Turkiston Harbiy



sakkiz oylik muallimlar kursi ochilgan edi. Murodxo'ja domla Solihxo'jayev mudir bo'lgan bu ta'lim dargohi o'lkada oliy ta'lim sari qo'yilgan ilk qadam bo'ldi. Unda tabiatshunoslik fanidan Amerikada oliy ma'lumot olgan Burhon Habib, tarixchi Zaki Validiy To'g'on, jahon tarixidan ozarbayjonlik Muhammad Amin Afandizoda kabi ko'pgina o'z davrining yetuk olim va mudarrislari dars berish uchun jalb etiladi.

Turkiston tarixida garchi qisqa muddat yashagan bo'lsada oltin zarvaraqlar sifatida muhrlangan Turkistonga muxtoriyatining yuzaga kelishida ham Ozarbayjonlik ma'rifatparvarlar Piri Mursalzoda, Muhammad Amin Afandizodalarning munosib xizmatlari bor. Ular Qo'qon shahrida bo'lib, Turkistonga

Sho'rosi rahbari Orif Klevleyev, Qozon musulmonlari Harbiy Sho'rosi vakili Ismat Ubaydullinlar bilan birga Kavkaz musulmonlari nomidan Piri Mursilzoda nutq so'zlab qutlagan edi. Turkiston Muxtoriyati mahv etilganidan so'ng ham Ozarbayjon taraqqiyparvarlari o'lkada milliy ta'lim, matbuot va o'zbek san'ati rivoji yo'lida xizmatini ayamagan. 1919-yil Turkiston Jumhuriyati Maorif komissari lavozimida ish olib borgan Muhammad Amin Afandizoda o'lkada milliy ta'lim tizimini shakllantiri va mahalliy yoshlarni Turkiya, Ozarbayjon, Moskva, Sankt Peterburg shaharlaridagi oliy ta'lim dargohlariga tahsil olishida bosh qosh bo'ldi. Munavvar qori Abdurashidxonov bilan birgalikda "Ishtirokiyun" gazetasida ko'plab maqolalar e'lon

Bokudagi drama studiyasida o'quvchi O'zbekiston talabalari

O'tirganlar (so'ldan): 1. Hakima Xo'ja qizi 2. Sayfi Olimiy 3. Nazira Hakim qizi 4. Sharifzoda (maktab mudiri muovuni) 5. Halima Nosir qizi 6. Rahimberdi Bobojonov 7. Yorqinoy Shahboz qizi.

Tik turganlar: 1. Husayn Karim o'g'li 2. Zuhur Qobil o'g'li 3. Sa'dulla Jo'ra 4. Karimjon Yaqubiy.



qildi. Umuman, Ozarbayjon markazi Boku shahriga ilk turkistonlik talabalar 1911 – 1912 yillardan yuborila boshlagan edi. 1916 – 1917 yillarda esa Boku pedagogika bilim yurtida Maqsud Behbudiy, Salimxon Tillaxonov, Abduvahob Murodiy, Qayum Ramazon kabi o'nlab turkistonlik talabalar ta'lim olganlar. 1917-yilda Munavvar qori Abdurashidxonovning yangi usul maktabida olti yillik ta'limni olgan Abdulvahob Ishoq o'g'li, Vali Qayumxon va Tohir Shokirlar o'rta ma'lumotni egalash uchun Ozarbayjonga boradi. 1921-yil Tohir Shokir, 1922-yilda esa Abdulvahob Ishoq Ozarbayjondan Turkistonga qaytib, oliy ta'lim olish uchun Germaniyaga yo'l oladilar. Shuningdek, 1922-yil kuzida Toshkentda tashkil etilgan "Ko'mak" uyushmasi tomonidan ham ko'plab yoshlar Ozarbayjonga yo'llandi.

Ular Ozarbayjon davlat dorulfununi, oliy texnika instituti, nafis san'at maktabi, ishchi fakultetlari va harbiy maktablarga o'qishga kirdilar. Talabalar a'lo baholarga o'qidi. O'zaro yig'ilishlar o'tkazib referatlari bilan bir-birlariga ta'sir etganlar. 1923-yil "Ko'mak" uyushmasi tomonidan talabalar uchun maxsus yotoqxona sotib olingan. Unda alohida kutubxona va talabalarning 15 kunda bir chiqadigan "Yosh qalam" nomli devoriy gazetasini chiqarish muntazam ravishda yo'lga qo'yilgan edi. Boku bilim yurtlariga keyingi yillarda ham muntazam ravishda talabalar yuborib turilgan.

1929-yil Muzayyana Alaviyaning "Bokuda O'zbekiston yigitlari" maqolasida, 1928-yil 19 nafar o'zbekistonlik talaba Boku ta'lim muassasalarini bitirib vatanga qaytgani, 1928/1929 o'quv yilida Bokuda o'zbekistonlik 46 nafar

yigit tahsil olib, ular Ganja va boshqa shahardagilari bilan qo'shib hisoblansa, jami 53 nafar edi. Shuningdek, Boku dramada studiyasida o'qigan Sayfi Olimiy, Zuhur Qobilov, Rahimberdi Bobojonov, Sa'dulla Jo'rayev, Halima Nosirova, Hakima Xo'jayeva kabi o'nlab teatr artistlari, Sobir Rahimov kabi harbiylar o'z sohasining haqiqiy darg'alar bo'lib yetishdilar. O'zbekiston hukumati iltimosi asosida Ozarbayjondan Aziz Ubaydullin, Bakir Cho'ponzoda kabi professorlar qator oliy ta'lim muassasalarida dars berishga taklif etildilar.

Afsuski, keyingi davrlarda sho'ro tuzumi tazyiqi ostida bu do'stlik aloqalari zaiflashib bordi. Bugungi kunda mazkur aloqalar tarixini keng tadqiq etish tarixchilari-mizning vazifasi bo'lsa, millatlarimiz orasida iqtisodiy-siyosiy, madaniy, ma'rifiy aloqalarni tiklash ravnaq topdirish barchamizning burchimizdir. Hazrat Nizomiy va Alisher Navoiylar boshlab bergan, Fuzuliy sharaf bilan davom ettirgan ikki qondosh ozarbayjon-o'zbek adabiy aloqalarini tadqiq va tashviq olimlar, tarjimonlar, yozuvchi-shoirlarning har biri alohida o'ringa ega. Xususan, ozarbayjonlik o'zbekshunoslar Hamid Arasli, Xalil Rizo, Abboszoda Husayn, Aziza Jafarzoda, Yoqut Dilbozi, Olmos Ulviy, Oydin Abilov, G'ulomhusayn Aliyev, Panoh Xalilov, Mirza Ibrohimov, Yashar Qosim, Mirzaog'a Qulizoda, G'ulom Mammadali, Ahad Muxtor, Jannat Nag'iyeva, Ozod Nabiyev kabi yigirmaga yaqin olimlarni sanab o'tish mumkin. Bu buyuk vazifaga yo'l solganlardan biri toshkentlik millatdoshimiz Xolid Said Xo'jayev edi. 1888-yil Toshkent viloyati Baytqo'rg'onda tug'ilgan Xolid Said maktab va madrasa tahsilidan so'ng 1914 – 1918 yillari Istanbulda Adabiyot fakultetida ta'lim oladi. 1918 – 1920 yillarda Ozarbayjonda askar sifatida bolsheviklarga qarshi milliy mujodalarda ishtirok etdi. Musavvat hukumati sovetlar tomonidan ag'darilgach, 1920 – 1922 yillar Toshkentda o'qituvchilik va mudirlik lavozimlarida ishlaydi. 1922-yil oktyabrda bir guruh o'zbek talabalariga rahbar bo'lib Bokuga qaytib keladi. U 1922 – 1926 yillar orasida Balaxani muhandislik fakultetida va Gusar texnik ta'lim maktabida o'qituvchilik qiladi. 1926 – 1934 yillarda Ozarbayjon Davlat universitetida, Ozarbayjon Til va adabiyot fakultetida arab, fors tili o'qituvchisi bo'lib ishlaydi.

Xolid Said 1926-yil Bokuda "I. Turkologlar qurultoyi"da tilshunos olim sifatida muhim o'rin tutdi. U "Devoni lug'atit turk", "Usmonli, o'zbek, qozoq tillarining qiyosiy sintaksisi", "Turk tillarining tarixiy grammatikasi", "Chig'atoy adabiyotidan muhoziralar", "Turk adabiyoti nazariyasi" kabi qator asarlar yozdi. Ayniqsa, 1929-yilda Bokuda nashr etilgan "Yangi alifbo yo'llarida eski xotiralarim va tuyg'ularim" kitobi bilan turkiy xalqlar hayotida "harf

inqilobchisi" sifatida nom qozondi. Xolid Said "O'tgan kunlar" romani yozilganidan ikki yil o'tib, 1928-yilda ozar tiliga tarjima qilgan. 1934-yildan Ozarbayjon Fanlar Akademiyasining tilshunoslik bo'limiga qabul qilingan Xolid Said 1937-yil 13-oktyabrda Ozarbayjonning sevimli va qahramon farzandlari qatorida panturkchi degan ayblov bilan Boku shahrida qatl etildi.

Xolid Said bilan qiyoslash mumkin bo'lgan, o'zbek xalqining sevimli qahramon farzandi Maqsud Shayxzodadir. 1908-yil Ozarbayjon Respublikasi Ganja viloyatining Oqtosh shahrida tug'ilgan Maqsud Shayxzoda 1925-yil Bokudagi dorulmualliminni tugatgan. 1928-yilda Toshkentga kelib, turli gazeta va jurnallar muharririyatlarida, 1935 – 1938 yillarda Fanlar Qo'mitasi qoshidagi Til va adabiyot institutida ilmiy xodim, 1938-yildan to umrining so'ngiga qadar Nizomiy nomli Toshkent Davlat pedagogika institutining o'zbek mumtoz adabiyoti kafedrasida dotsent vazifasida xizmat qildi. 1929-yildan adabiy faoliyatini boshlagan shoirning "O'n she'r", "Undoshlarim", "Uchinchi kitob", "Jumhuriyat" to'plamlari o'zbek she'riyatining yorqin namunasi. Bugun har bir o'zbekning tilidan Maqsud Shayxzodaning eng go'zal ash'orlarini tinglash mumkin. Uning "Jaloliddin Manguberdi" va "Mirzo Ulug'bek" kabi dramatik asarlari o'zbekning milliy iftixoridir. 1964-yil O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi bo'lgan Maqsud Shayxzoda 1967-yil Toshkent shahridagi Forobiy qabristonida abadiy qo'nim topdi. Shubhasiz, ikki xalqning birday sevimli farzandiga aylangan bu hazrati insonlarning hayot yo'li, ilmiy-ijodiy merosi qardoshlarimiz bilan abadiy do'stligimiz ko'prigidir.

* * *

2025-yil yozida "Bobolar izidan" tashabbus guruhi-mizning navbatdagi safari uchun yuqoridagi oliyjanob maqsadlar va barcha erksevar turkiy qavmlarning orzusi bo'lgan Buyuk Turon uchun o'ta muhim bo'g'in bo'lmish Ozarbayjon bo'lgasi tanlandi. Olimlar, mashhur shoirlar, yozuvchi, rassom, san'at vakillari va tasvirchimizdan iborat guruh shakllantirildi.

Xursandchilik va go'zal kayfiyat butun safar davomida – poytaxt Bokuda ham, Oqtoshda ham, purviqor tog'lar bag'ridagi Shakida ham, qadimiy Ganjada ham bir lahza bo'lsin tark etmadi. Shamollar shahri Boku haqiqiy mehmondo'stlik namunasini ko'rsatdi. Ko'hna shahar obidalar, tarixiy ashyolar, qimmatbaho asori atiqalar bilan to'la muzeylar, osmon o'par binolar, obod savdo rastalari, har qadami anvoyi gullar bilan bezangan bog'lar-u xiyobonlar, har atrof chinniday toza musaffo



havoli shahar. Ayniqsa, muhtasham “Shahidlar maydoni” majmuasidan dengiz sohili bo’ylab yursangiz o’nlarча chaqirim hududlar son-sanoqsiz sayyohlar va sayrga chiqqan bokuliklar bilan to’la.

Xo’sh, yuqorida nazarda tutganimiz ikkinchi masala – Turon kelajagida Ozarbayjonning o’rni qanday? Nima sababdan bu mamlakat tabora ulkan ahamiyat kasb etmoqda. Istiqloлга bir vaqtda erishgan mamlakat yirik harbiy xarajatlariga qaramay qanday qilib jahon geopolitikasi sahnasiga muzaffar kirib bormoqda. Nahotki, neft shunchalik muhim tovar yohud gap geografik joylashuvdami? Buning sabablarini ko’zim tushgan har bir chehradan, har bir suhbatlashgan odamimdan, har bir narsa-hodisadan sinchkovlik bilan qidiraman. Shuni

angladimki, ozarbayjonliklarda aniq maqsad, aniq g’o-ya bor! Har bir vatandosh o’zligini, kimligini va kechagi yaxshi-yomon kunlarini, do’st-u dushmanlarini has-sos qalb bilan anglaydi. Bunga maydonlarda, uylarda hilpirab turgan yuzlab bayroqlar, ko’chalarga o’rnatilgan minglab shahid askarlarning mungli, ayni paytda mag’rur va so’roq bilan qarab turgan ko’zlari sababdir. Har bir Ozarbayjon vatandoshida o’z vatanini cheksiz sevish ruhi bor. Ayni paytda ularda Turon orzusi ham mustahkam. Buni ko’chada, tadbirida yoki tamaddixonada aholining qaysi qatlami, qaysi yoshdaligiga qaramay aniq aytishadi. Bizni yo o’zlari o’zbekmisizlar deb tanib qoladi, yo o’zimiz aytsek “o’zbek, jon qardosh. Sizlar bizni hamisha qo’llab-quvvatlab turgan insonlar-



siz" deb, xoh uzoq tarixdan, xoh bugungi dunyoda kechayotgan jarayonlardan misollar keltirishga kirishib ketadi.

Samarqand, Buxorolarni ta'riflab Turonning qadimiy poytaxti, o'zbeklarni esa turkiy xalqlar tarixida muhim ahamiyatga molik xalq deb o'z ehtiromlarini bildirishga shoshiladilar. O'ylaymanki, bunday faol, yosh va izlanuvchan xalq dunyoning eng qudratli mamlakatlari uchun ham orzu. Odamlarning chehrasida qandaydir surur, go'zal yigit qizlarda o'ziga, mamlakatining kelajagiga ishonch ufurib turibdi. Mana bugun jonajon Ozarbayjon erishayotgan zafarlarning asl manbai. Yana bir gap birgina Boku slavyan tillar universitetida bo'lganimizda shaxsan janob rektorning o'zi mazkur oliy ta'lim dargohi va unda talabalar uchun yaratilgan shart-sharoitlar haqida so'zlab berdi. Demak, bu hali hammasi emas, kelajakda Ozarbayjon har sohada mislsiz marralarni qo'lga kiritadi. Buning uchun vatandoshlarning uzoq va yaqin tarix hodisalaridan mukammal xabardorligi, turkiy birlik g'oyasiga sadoqati taraqqiyot uchun bitmas tuganmas manba bo'lib xizmat qiladi. Komil ishonch bilan aytish mumkinki, Ozarbayjon O'zbekiston uchun nafaqat iqtisodiyot, sanoat va harbiy jabhalarda, balki ilm-fan yo'nalishida ham ishonchli hamkor bo'ladi. 🌸

